

ISSN: 2181-4562

DOI Journal 10.56017/2181-4562



IMFAKTOR

# JOCAA

VOLUME I, ISSUE 8

МАДАНИЈАТ ВА САНЉАТ

# JOURNAL OF CULTURE AND ART

КУЛТУРА И ИСКУССТВО

OCTOBER

2023



ISSN: 2181-4562  
DOI Journal 10.56017/2181-4562

# МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 8-СОҢ

## ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-8

## JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-8

ТОШКЕНТ – 2023

# МАДАНИЯТ ВА САНЪАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

№ 8 (2023) DOI <http://dx.doi.org/10.56017/2181-4562-2023-8>

## БОШ МУҲАРРИР:

Халикулова Гўзал  
Эркиновна

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
профессори в.б., Санъатшунослик фанлари номзоди

## МАСЪУЛ МУҲАРРИР:

Мелиқўзиев Иқбол  
Мамасодиқович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
кафедра мудири, профессор в.б., Санъатшунослик  
фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)

## ТАҲРИРИЯТ АЪЗОЛАРИ:

Касимов Нозим  
Козимович  
Ходжаметова Гулчира  
Илишевна

Маданият ва туризм вазирлиги “Таълим ва илм-фанни  
ривожлантириш бошқармаси” бошлиғи, профессор  
Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти Нукус  
филиали “Санъатшунослик” факультети декани, Тарих  
фанлари номзоди, профессор

Абдувоҳидов  
Фахриддин  
Мелигалиевич

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
кафедра мудири, доцент, Санъатшунослик фанлари  
бўйича фалсафа доктори (PhD)

Кадиров Рамз  
Турабович  
Умаров Мамур  
Боташикович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти “Саҳна  
нутқи” кафедраси доценти

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
“Санъатшунослик ва маданиятшунослик” кафедраси  
профессори в.б., фалсафа фанлари номзоди

Худоев Ғани  
Муҳаммадович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти  
кафедра мудири, Санъатшунослик фанлари бўйича  
фалсафа доктори (PhD)

Бердиханова Шахида  
Нурлыбаевна

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати  
институти “Ўзбек мақоми тарихи ва назарияси”  
кафедраси мудири, санъатшунослик фанлари бўйича  
фалсафа доктори (PhD)

Дўсанов Раҳимжон  
Раимқулович

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, “катта  
ўқитувчи”, мустақил тадқиқотчи

Суннатиллаев Асатилло  
Суннатович

Юнус Ражабий номидаги Ўзбек миллий мусиқа санъати  
институти “Илмий тадқиқотлар, инновациялар ва илмий-  
педагогик кадрлар тайёрлаш” бўлими бошлиғи, мустақил  
изланувчи (PhD)

Алланбаев Рудакий  
Оринбаевич  
Зиявутдинова Зулфия  
Усеиновна  
Раимова Дилфузахон  
Махаммадсолиевна  
Ботирова Хилола  
Турсунбаевна

Қорақалпоғистонда хизмат кўрсатган артист, “Шуҳрат”  
медали соҳиби, профессор в.в.б

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Мусиқа санъати” ихтисослиги бўйича доцент

“Маданият ва санъат” журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган. Мазкур журнал **6 та** халқаро маълумотлар базаларида индексланган бўлиб, жорий йил учун **UIF 2023 = 7.7 “импакт-фактор”** кўрсаткичига эга.

Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлиги ҳузуридаги Олий аттестация комиссиясининг 2023 йил 24 июлдаги 01-02/1199-сонли хатига мувофиқ ушбу журналда чоп этилган мақолалар **хорижий мақолалар сифатида тан олинади.**

Саҳифаловчи\Page Maker\Верстка: Абдураҳмон Хасанов

Таҳририят манзили: Тошкент шаҳар, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2/27-уй. Почта индекси 100152. Веб-сайт: [www.imfaktor.uz/com](http://www.imfaktor.uz/com)

Телефон номер: +99894-410 11 55, E-mail: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

© “ИМФАКТОР Pages” илмий нашриёти , 2023 йил.

© Муаллифлар жамоаси, 2023 йил.

# МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО | JOURNAL OF CULTURE AND ART

**MUXAMEDOVA Madina Ashurovna***O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi**"San'at nazariyasi va tarixi"**kafedrasida katta o'qituvchisi*<https://doi.org/10.5281/zenodo.10050700>

## RAQS SAN'ATIGA BAXSHIDA BAXTLI UMR. BAKHTIYOR ALIYEV YARATGAN RAQS MUSIQIY DURDONALARI

### ANNOTATSIYA

Maqolada O'zbekiston san'ati ustasi, bastakorining ijrochikik faoliyati, kompozitor va xoreograflarning hamkorliklari haqida gapiriladi. Respublikada raqs san'atining bosqichma-bosqich bosib o'tgan ijodkor, ulug' ustozlar qo'lida tahsil olgani va ishlagani. Bastakorning nodir musiqiy asarlari alohida aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** raqs, milliylik, xoreografiya san'ati, baletmeyster, bastakor, musiqa, kuy, ansambl, hamkorlik.

## СЧАСТЛИВОЙ ЖИЗНИ В ДАР ТАНЦЕВАЛЬНОМУ ИСКУССТВУ. ТАНЦЕВАЛЬНЫЕ МУЗЫКАЛЬНЫЕ ШЕДЕВРЫ БАХТИЕРА АЛИЕВА

### АННОТАЦИЯ

В статье говорится о творчестве мастера искусств Узбекистана, композитора, сотрудничестве композиторов и хореографов. Дело в том, что он учился и работал под руководством творческих, замечательных педагогов, прошедших этапы танцевального искусства республики. Отдельно упомянуты редкие музыкальные произведения композитора.

**Ключевые слова:** танец, национальность, хореографическое искусство, балетмейстер, композитор, музыка, мелодия, ансамбль, сотрудничество.

## HAPPY LIFE IN DANCE ART. DANCE MUSICAL MASTERPIECES CREATED BY BAKHTIYAR ALIYEV

### ANNOTATION

The article talks about the work of the master of arts of Uzbekistan, composer, cooperation between composers and choreographers. The fact is that he studied and worked under the guidance of creative, wonderful teachers who went through the stages of the dance art of the republic. Rare musical works by the composer are mentioned separately.

**Key words:** dance, nationality, choreographic art, choreographer, composer, music, melody, ensemble, cooperation.

O'zbek musiqa madaniyati qadimiy va rang-barang, ayni paytda yangi zamon an'alarini o'zida mujassam etib rivojlanmoqda. Bunda avvalo benazir xalq musiqasi, mumtoz musiqiy meros, milliy bastakorlik hozirgi zamon bastakorligi, shuningdek xalq havaskorligi hamda jo'shqin ommabop estrada ijodiyoti kabi serjilo jabhalar namoyon bo'ladi. Istiqlol sharofati bilan milliy-ma'naviy qadriyatlarimizga bo'lgan diqqat-e'tibor, unutilayozgan an'alarimizni tarixan qisqa muddat ichida qayta tiklanishi, muttasil taraqqiy ettirish maqsadidagi yangilanish, isloh etish jarayonlarida ustivorlik kasb etdi. Shuningdek qo'shni va uzoq xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-musiqiy aloqalarni o'zaro boyitish yo'lida rivojlantirish sayi-harakatlari ham dolzarb ahamiyatga ega bo'ldi.

O'zbek xalqining ma'naviy go'zalligi asrlar davomida kelayotgan kuy-ohanglarida o'zining ajoyib, betakror badiiy in'ikosini topgan. Ulamolarimiz ta'riflardan biriga ko'ra, musiqa-inson ruhining oziqidir. Binobarin, milliy musiqa ko'p asrlar davomida ajdodlarimiz boy ma'naviyatining, teran tafakkurining, barkamol ruhiyatining sadolardagi jonli ifodasi va ayni paytda yangi buyuk davlat bunyodkori bo'lmish jamiyatimizning ruh, quvvatidir.

Ayni vaqtda qadimiy va boy musiqiy merosimiz yangi davrlarda qaror topgan bastakorlik an'alarini ham o'zida mujassam etgan holda rivoj topmoqda.

O'zbekiston xalq artisti davlat mukofati laureati, bir necha orden va medallar sohibi. Mastona xiroman aylar rakossa. Bu ne kuy, maloxat atib taralar Bastakor Baxtiyor oxanglaridan Yurak parchalovchi otash yaralar.

U 1938 yili Toshkent shaxrining qashqar maxallasida ziyoliylar oilasida tavallud topgan. 1945 yili 5-maktabga boradi [1].

Baxtiyor Aliyev bilan suhbat uyushitganimda ustoz menga o'z navqiron davrlarini xotirlab, "o'kib yurgan kezlarim baxor faslining so'ngi oylarining birida deb xotiralaydi Baxtiyor aka sinf raxbarimiz matematika o'kituvchisi Axmadjon aka barcha o'qituvchilarimizni san'at saroyiga olib bordilar, shu sabab bo'ldimi kundan kunga musiqaga tobora mexr qo'ya boshladim. Ustozlarimdan Sayfi Jalil, professor Axmadjon Odilovlardan milliy musiqa asboblaridan saboq oldim. Ayniqsa chang asbobi meni o'zgacha rom etardi. Uning tovush pardalari tilga kirganda vijidimda yoqimli hayajon titroq paydo bo'lardi. Men uning asiriga aylangadim. San'at saroyi bi birgalikda musiqa maktabini tugalladim, xa bahor faslidagi kizikishim, tanlagan yulim bora-bora yillar osha "Bahor" dargoxiga yetakladi. U yerda bahorning beqiyos g'unchalari, turfa raqs malikalari bilan shiladim. Ularga uch yuzdan ortiq kuy bastaladim. 1965 yildan buyon "Bahor"ning musiqa rahbariman. Men uzimni ismi-jismimga monan to'liq Baxtiyor deb hisoblayman"- deydi [1].



Baxtiyor Aliyev 1953 yili Xamza bilim yurtiga kiradi. Shu orada Temiriulchilar qoshidagi orkestrga ham qatnashib keladi. Unga O‘zbekiston xalq artisti Xakim Nishonov rahbarlik qilib kelgan. Bu orkestr usha davrning obro‘li, e‘tiborli orkestrlardan sanalgan. 1955 yilda 1957 yilga qadar O‘zbekiston ashula va raqs ansambliga ustozlari tavsiyasi bilan ishga qabul qilinadi [2].

1957 yil katta tanlovlar bilan “Bahor” ansamblga tanlov jarayonidan, ya’ni Kamtar Otaboyev, Boboraxim Amirzayev, Sharif Ramazonii, Muxammadjon Mirzayev, Isohor Oqilovlar ko‘rigidan muvafaqiyatli, o‘tib Mukarrama opa qo‘liga keladi. Yuqorida sanalgan katta ustozlar ko‘magida katta zafarlarga sazovor bo‘ladi. 1958 yili u kuy bastalashga bel bog‘laydi va ansambl sozandalari yordamida “Bahor nashidasi” nomli kuy bastaladi. 1961 yilda Finlyandiyada bo‘lib o‘tgan. VIII jahon festivaliga “Sho‘xi pari” raqsiga musiqa bastalaydi. Kuy va raqs shu darajada uyg‘unlashib ijro etilgani, “Oltin medal” sovrindoriga aylanib qaytadi [2].



1956 yili konservatoriyaga xujjat topshiradi, ammo 3 yil o‘tgach, to‘liq tugatolmay tashlab ketishga majbur bo‘ladi. Sababi gastrollarning ko‘pligi “Bahor”ning jahonga yuz tutaboshlaganligi. Bastakorning ansamblidagi aniq o‘rni 1963 yilda Baxtiyor aka “Bahor” ansamblining raqossasi Karima Raxmatullayeva bilan taqdir ipini bog‘laydi. Tez orada Baxtiyor Aliyev taniqli bastakorga aylanadi. U mashhur ustoz san‘atkorlar Mukarrama Turg‘unbayeva, Isohor Oqilov, Roziya Karimova, Qunduz Mirkarimova, Galiya Izmayilovalarga va xalq artistlari, xizmat ko‘rsatgan artistlarga qo‘l bilan sanoqsiz go‘zal ohanglar yaratadi.

Baxtiyor Aliyev nafaqat kuchli bastakor balki bilim doyrasi keng kamtar inson, dili toshqin ijodkor, xazil mutoibani qadrlaydigan yumorist, safarlarda zeriktirib qo‘ymaydigan talay-talay xandalarga boy sherik ham edi [4].

Zaxmatkash, yetuk qirrali ijodkor o‘z musiqiy sadolari ila faxrli “Mustaqillik”, “Navro‘z” davlat bayramlarimizdan yuzdan ortiq musiqiy asarlar yaratib, sozandalarga rahbarlik qilganlar. Asarlari radio, televideniye, kino ekranlarida juda ko‘p marotaba yangragan. Hordiqdan nari ijodkor qadrdon “Bahor” ansamblida musiqa rahbari, ustoz darajasida ham o‘z shogirdlariga ega.

Bastakor ikki qizining faxrli otasi va uch o‘g‘il nabiraning sevimli bobojonisi bo‘lgan.

Baxtiyor Aliyevning bastakorlik san'atida erishgan muvaffaqiyatlarini, umuman olganda, uning ijodidan hayotga yo'l olgan raqslarni, musiqualarni, qo'shig'u-cholg'u kuylarini san'atkorlar qalb harorati va dillarida o'rin olganligini alohida ta'kidlab o'tish joiz albatta. Zero, bu kuylarda bastakor xalqimizning mehnat jasoratini, tabiatni, go'zalligini va ona zaminga muhabbati tarannum etardi.

Xalqimiz ardoqidagi ushbu kamtarin bastakor 2019 yilning 27 martida bizni tark etdi.



**ИҚТИБОСЛАР/СНОСКИ/REFERENCES**

1. Jabborov A. O‘zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari–Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004.
2. Muhsin Qodirov. Tomosha san’ati o‘tmishidan lavxalar–Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 1993.
3. Imomnazarov M. Milliy ma’naviyatimiz asoslari–Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009.
4. O‘zbekiston san’ati (1991-2001)–Toshkent: “Sharq” nashriyoti matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2001.

ISSN: 2181-4562  
DOI Journal 10.56017/2181-4562

# МАДАНИЯТ ВА САЊАТ ЖУРНАЛИ

I-ЖИЛД, 8-СОҢ

## ЖУРНАЛ КУЛЬТУРА И ИСКУССТВО

ТОМ-I, НОМЕР-8

## JOURNAL OF CULTURE AND ART

VOLUME-I, ISSUE-8

«Маданият ва санъат» электрон журнали 2023 йил 24 февраль куни № 065356-сонли гувоҳнома билан оммавий ахборот воситаси сифатида давлат рўйхатидан ўтказилган.

Муассис: «IMFAKTOR Pages» масъулияти чекланган жамияти.

Таҳририят манзили: 100152, Тошкент шаҳри, Учтепа тумани, “Ватан” МФЙ, Чилонзор 24-мавзеси, 2-уй.

Телефон номер: +99894-410 11 55

Эл. почта: [tahririyat@imfaktor.uz](mailto:tahririyat@imfaktor.uz)

Веб-сайт: [www.imfaktor.uz](http://www.imfaktor.uz)